

**SERILLARNING JAMIYATGA TA’SIRI**

***Erkinboyeva Sevinch***

*San’at va madaniyat instituti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Hozirda chiqayotgan seriallarning yaxshi va yomon tomonlari, ularning afzalliklari va boshqa davlatlarning seriallari bilan o’zaro farqlari tahlil qilingan.

**Kalit so’z:** Reklama, premyera, serial.

**Serial** — oddiy tilda aytganda, kinoijodkorlar tomonidan suratga olingan bir nechta davomiy qismlardan iborat film. U asosan kinoteatrлarda emas, televideniyeda premyera qilinadi.

Seriallar insonlar uchun qanchalik kerak ?

Umuman olganda kerak emas ! Lekin televide niye va telekanallar uchun kerak. Serial dastlabki qismlaridan auditoriya to‘playdi va uni ma’lum muddat ushlab qola biladi. Bu esa o’sha serialni namoyish etayotgan telekanal uchun ayni muddao. Reytinglarda eng ko‘p tomosha qilinadigan telekanal deb e’tirof etiladi. Reklama beruvchilar ko‘payadi. Boshqa ko‘rsatuвлar ham auditoriya yig‘adi va hokazo. Seriallarning eng katta zaralaridan biri bu, biz uchun qimmatli bo’lgan vaqtimizni o’g’irlashidir. Shu bilan birga undagi voqealar bizning hayotimizga ko’cha boshlaydi , ya’ni biz insonlar serialdagi shaxslarga o’xshashga harakat qilamiz .

Keling avval bizga 2017-2018,2019-2020 yillarda teleekranlarda namoyish etilgan turkiya seriallarini ko’rib chiqaylik. Aynan shu yillarda juda katta qoralamalarga sababchi bo’lgan “ Sevgi istrobi ”, “Qora niyat” kabi bir nechta seriallar namoyish etilgan va bu xalqimizning bu seriallarga oddiy tilda aytadigan bo’lsak seriallarga “qaramlik”larini oshirishiga sababchi bo’lgan. Seriallarning insonlarga yaxshilik taraflama o’rnak bo’lishi emas aksincha yomonlik, buzg’unchilik bilan o’rnak bo’la olishi ko‘payadi desam adashmayman. Bunga misol qilib “ Sevgi istrobi ” serialidan o’zbek xalqi” sevgan inson xiyonat qilib bo’lsa ham sevgisiga yetishishi kerak” degan fikrlarga borib qolishi natijasida “xiyonat”keskin ko’payib ketdi . U yerdagi kiyinish uslubi , qizlardagi hayo, or-nomus kabi tushunchalarni deyarli unutishiga sababchi bo’ldi.

“Qora niyat ” ko‘p faslli serialdan esa makr , xiyonat , yolg’on , behayolik , ko‘p xotinlikka ruju qo’yish keskin ortdi.Bu seriallar o’z vaqtida keskin muhokamalarga sababchi bo’ldi va teleekranlardan olib tashlandi . Ularning o’rniga endi o’zimizning milliy teleseriallarimizni ko’paytirish qarori kuchga kirdi. Aynan shu sababli hozirgi kunga kelib milliy serillar soni keskin ortib ketdi. Ammo hozirgi kundagi seriallarning mavzusi, saviyasi , ma’daniyati cheklov qo’ylgan turk seriallaridan kam emas !

Serallarimizda tadbiq qilinayotgan narsalar : foxshalik, zo'ravonlik, qo'sh xotinlik, qotillik , o'zbek ayollarining shallaqilik, shularmi ? Turk seriallariga taqiq qo'yildi nimayu ? o'zbek milliy seriallarini bemalol hamma telekanallarda namoyish qildi nima?

Ho'sh serialarning bunchalar ko'pligi va ularning hamma kanallarda ko'rsatilishiga nima sabab ? Albatta o'zbek xalqi ko'p serial ko'radigan xalq , shu sababli bu kabi serillarni xalqimizning o'zi talab qilayapti. Ayb kimda deb o'ylaysiz ? Teleekranlar orqali saviyasiz serialarni berayotgandami yoki ularni ko'rayotgandami ayb ? Menimcha xalqimizni ma'daniyatini , saviyasini oshirish uchun bunday seriallarga nuqta qo'yishimiz kerak.

Aynan hozirgi kundagi seriallar ham o'zbek kinosiga bir muncha ta'sir o'tkazmoqda . Ko'p insonlarning shu ikkisini farqlay olmasligi tufayli "o'zbek kino jarlik tomon ketmoqda" va shunga o'xhash ko'p so'zlar qulqoqqa chalinadi . Kino va serialning asosiy farqi serialning har bir qismi yaxshilik, ibratli holat bilan tugamasligi. Kino esa bitta qism va unda ham oxiri ezgulik g'alaba qozonadi. Ibratli holat xotiraga muhrlanadi. Bugun ko'rgan serialingizdagi salbiy holat, ertaga sizni ham ongingizga ta'sir o'tkaza oladi. Lekin siz ertaga o'sha serialning davomini(yaxshi tomonini) ko'rishingizni hech kim kafolatlolmaydi. Kinoni estetik zavq olish uchun ko'rish kerak, lekin serial bunday muhit yarata olmaydi. Demak, aslida serial biz uchun kerak emas!

Hozirgi kundagi o'zbek ( qo'shtirnoq ichida ) " milliy" seriallarimizdan eng ko'p tomosha qilinyotganlaridan bir nechtasini sanab o'tsam: "Oriyat ", " Kundosh", " Qo'riqxona", "Daydi qizning daftari", "Asorat" , " Bag'ritosh " , " Nomus " , "Qora beva " kabi nomlari kamalak kabiladir . Bulardagi asosiy mavzularni yuqorida sanab o'tdim. Bu serillardagi "Konfetlar" orqali rol o'ynayotgan "zvezda"larning ensani qotiradigan qiliqlarini kim ham ko'rardi. O'zining yaqinlari va serial "jinnilar"dan tashqari. Ya'ni aktyor aktrisalar deyarli hech qayerda o'qimagan havasmand " boyvochchalar"dir .Haqiqiy talent egalari esa bir chetda qolib ketishayapti .

Seriallardagi yana bir narsaga e'tibor qiladigan bo'lsak , ayol va qizlarning gender tengsizligini oshishiga sababchi bo'lmoqda . Bu haqida Saida Mirziyoeva o'z fikrlarini aytib o'tdi . Saida Mirziyoyevaning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston aholisi teleekranda to'g'ridan-to'g'ri xakerliklarni ko'rmasligi kerak. Seriallar va filmlar ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlikni rivojlantirmasligi kerak.

"Men badiiy komponent haqida gapirmayman, u shunchaki yo'q. Serial ijodkorlari orasida birorta ham ayol yo'qligiga ishonchim komil. Chunki hech bir filmda ssenariyda ayollarga nisbatan bunchalik nafratni ko'rmaganman . Biz gender tengligi va ayollarga hurmat jamiyatimizda normaga aylanishi uchun ajoyib sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdamiz. Tomoshabinga ega bo'lgan har birimiz so'z uchun katta

mas'uliyatga egamiz. Ammo bunday seriyallar gender tengligining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Bunga yechim sifatida avvalo serialarni yoshu qari insonlar ko'rishini hisobga olishimiz darkor . Serialarimizning deyarli hammasi kattalar uchun mo'ljallangan . Qaynona urushi , er xotiniga qo'l ko'tarishi kabi bir hil sahnalar obrazlar . O'smirlar uchun ishlangan birorta ham serial yo'q ! Yoshlarga har taraflama o'rnak bo'la oladigan mavzular juda ham ko'p , aynan bir hil mavzularga yopishib olishimiz shart emas deb hisoblayman. Misol qilib aytadigan bo'lsam , buyuk shaxslarimizga baxshlangan “tarixiy “ serialarni ishlash haqida bosh qotirsak xalqimiz uchun ham foydali bo'lar edi .

Shuning uchun loqayd bo'lmaylik ! Men serial tomosha qilmayman , menga mavzuni aloqasi yo'q deydiganlar adashadi . Hech bo'limganda yaqinlaringizdan biri televizor tomosha qiladi. Milliy seriallardagi yot g'oyalar millionlab insonlarga ta'sir o'tkazmasidan ko'zimizni ochaylik. Biz o'zimiz bular haqida gapirmasak, va bularni ko'rishda davom etsak , ular ham bu yolda davom etadi. O'zgarishlarni avvalo o'zimizdan boshlaylik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Hasanov, A. (2020). Ommaviy madaniyat va uning jamiyatga ta'siri. Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.
- 2.Saidova, M. (2019). Televizion ko‘rsatuvarlar va ularning axloqiy talqinlari. Toshkent: O‘zbekiston jurnalistika universiteti nashriyoti.
- 3.Bordwell, D., & Thompson, K. (2016). Film Art: An Introduction (11th ed.). New York: McGraw-Hill.  
(Kino va serial janrlarini tahlil qilish uchun asosiy manba)
- 4.Karimova, N. (2021). Seriallar psixologiyasi: Ta'sir mexanizmlari va yosh auditoriyaga ta'siri. Samarqand: SamDU nashriyoti.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (2023). O‘zbek seriallarining monitoringi va ijtimoiy bahosi. Toshkent.